

*Sifatli ta'lim -
yorqin kelajak*



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA IMSTITUTI

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**mavzusida Respublika ilmiy-
amaliy anjuman materiallari
to 'plami**

2025-yil 10-11-oktyabr



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE
DEVELOPMENT OF PRIMARY EDUCATION**

**mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to'plami (2-qism)
2025-yil 10-11-oktyabr**



Termiz-2025

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz davlat pedagogika instituti tomonidan 2025-yil 10-11-oktyabr kunlari onlayn va offlayn shakllarda tashkil etilgan "Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish muammolari va istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallaridan iborat.

Konferensiya boshlang'ich ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, ilg'or tajribalar va innovatsion yondashuvlarni muhokama qilish, mavjud muammolarga yechim topish hamda rivojlanish istiqbollari belgilashga qaratilgan. To'plam materiallaridan professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrantlar va umumta'lim maktablari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.)

Tahrir hay'ati:

- | | |
|-------------------------|--|
| Xasanov A.B. | - Termiz davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, dotsent. Tahrir hay'ati raisi. |
| Kuldasheva Sh.A. | - Termiz davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, kimyo fanlari doktori, professor |
| Qosimov Sh.U. | - Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, p.f.f.d (PhD), professor |
| Shabbazova D.R. | - Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasini mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent (mas'ul muharrir) |
| Muxtorova L.A. | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasini mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent |
| Muminova U.Q. | - Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasini katta o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD) |
| Olloqulova F.U. | - Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasini katta o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD) |
| Xudaykulova S.Z. | - Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasini o'qituvchisi |
| Majidova X.E. | - Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasini o'qituvchisi |
| Turobov M.S. | - Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasini o'qituvchisi |

Taqrizchilar:

- | | |
|---------------------------|---|
| Nurullayeva Sh.O'. | - QarDU professori, pedagogika fanlari doktori |
| Norbo'tayev X.B. | - TerDPI professori, pedagogika fanlari doktori |

Mazkur konferensiya to'plami Termiz davlat Pedagogika instituti Kengashining 2025-yil 28-avgustdagi №1/7.25-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-594-25-0

© Termiz davlat pedagogika instituti

© "Termiz publishing center" 2025

Qadriyatga yo'naltirilgan kompetensiyalar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, jamoaviy hamjihatlik, ekologik madaniyat, madaniy muloqotga tayyorlik;

Shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlari: ijtimoiy faollik, refleksiv fikrlash, milliy o'zlikni anglash, insoniy munosabat madaniyati;

Pedagogik ta'sir natijalari: o'quvchida milliy an'analarga hurmat, xalq merosini asrashga mas'uliyat hissi, ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatining o'sishi.

Bu tizimning amaliy samarasi - milliy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim talablarini uyg'unlashtirgan, g'oyaviy-ma'naviy barkamol, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashdir. Shu tariqa, boshlang'ich ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar asosida qayta tizimlash Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyoti va barqaror ijtimoiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyomuhamedova, G. Ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
2. Tilavova, M. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

**KREDIT-MODUL SHAROITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF
O'QITUVCHILARIGA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Shokirov Temurmaliq Farhod o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ona tili darslarini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Unda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, raqamli ta'lim texnologiyalarini integratsiya qilish hamda baholashning kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilishi tahlil etilgan. Shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, o'quv motivatsiyasini oshirish, dars samaradorligini ta'minlashda pedagogik muhitning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada kredit-modul tizimining afzalliklari, uni amaliyotga joriy etishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'illari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, boshlang'ich ta'lim, ona tili darsi, pedagogik shart-sharoit, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, mustaqil ta'lim, interfaol metodlar, baholash tizimi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi — ta'lim jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish,

raqobatbardosh, kreativ va malakali pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, kredit-modul tizimining joriy etilishi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi va talabalar mustaqil fikrlashini, ijodkorligini, bilimlarni amaliy qo'ilash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni ona tili darslarini tashkil etishga tayyorlashda mazkur tizim muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit-modul tizimi o'qitish jarayonini individuallashtirish, talabalarning o'quv yuklamasini mustaqil rejalashtirish va o'zlashtirish darajasini baholash imkonini beradi. Bu tizimda o'qituvchi dars jarayonining markazida emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va nazorat qiluvchi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy pedagogik mahoratni ham egallaydilar.

Ona tili darslari boshlang'ich ta'limning asosi bo'lib, o'quvchilarda muloqot madaniyati, tafakkur, nutq va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarga ushbu darslarni zamonaviy metod va texnologiyalar asosida tashkil etishni o'rgatish zarur. Kredit-modul tizimi esa bu jarayonni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili darslarini tashkil etishga tayyorlash jarayonining nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, samarali metodlari hamda ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari ilmiy tahlil qilinadi. Shu orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kredit-modul tizimida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va ta'lim tizimida boshqaruvning yangi mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi farmon va qarorlarida ta'limning kredit-modul tizimiga o'tish jarayoni, uning mohiyati va ustuvor yo'nalishiari belgilab berilgan. Bu hujjatlar ta'limni raqamlashtirish, talabalarning mustaqil o'qishini rag'batlantirish va sifatli bilim berishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Pedagogika sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar — A. Abduqodirov, N. Musurmonova, S. Usmonov, M. To'raqulova, T. Yuldasheva va boshqalar o'z tadqiqotlarida ta'limda innovatsion yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, modul tizimining o'qitish

samaradorligiga ta'siri kabi masalalarni keng yoritganlar. Ularning fikricha, kredit-modul tizimi nafaqat ta'limni individuallashtiradi, balki talabada mustaqil fikrlash, o'z bilimini baholash va rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar — J. Biggs, R. Barnett, D. Harden, P. Ramsden va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik konsepsiyalar ham kredit-modul tizimining nazariy asoslarini belgilab beradi. Ular ta'lim jarayonida "student-centred learning" — ya'ni talaba markazli yondashuvni qo'llash, refleksiya, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini baholash mexanizmlarining ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Ona tili ta'limini tashkil etish bo'yicha mahalliy olimlar (M. G'ulomov, R. Safarova, D. Yo'ldosheva va boshqalar) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda dars jarayonida interfaol metodiardan foydalanish, nutqni rivojlantirish mashqlarini tizimli tashkil etish hamda ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Ularning ishlarida darsni samarali tashkil etish uchun o'qituvchining metodik tayyorgarligi, didaktik vositalarni to'g'ri tanlashi va pedagogik muhitni shakllantirishi zarurligi qayd etilgan.

Umuman olganda, adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu tizim orqali ona tili darslarini tashkil etish jarayoni yanada takomillasib, talabalarning ijodkorligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va kasbiy kompetensiyasi rivojlanadi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ona tili darslarini tashkil etish holati, mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi tobora keng joriy etilmoqda, ammo uni samarali qo'llash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar to'liq shakllanmagan.

Avvalo, dars jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ularning o'zlashtirish darajasini muntazam nazorat qilish hamda baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish zarurligi aniqlangan. Ko'pgina hollarda modul asosidagi o'quv jarayoni faqat reyting ballari bilan chegaralanib qolmoqda, bu esa talabalar motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ta'hiillar shuni ko'rsatdiki, kredit-modul tizimining afzallikiari — dars jarayonining shaffofligi, talabaning mustaqil o'qish imkoniyati, o'qituvchining yo'naltiruvchi roli va ta'lim jarayonining moslashuvchanligidadir. Biroq, bu tizimni samarali amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratish zarur:

- o'qituvchilarning modul tizimida ishiash bo'yicha metodik tayyorgarligini oshirish;
- raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish;
- interfaol metodlar asosida ona tili darslarini tashkil etish;
- talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, ona tili fanidan kredit-modul asosida o'qitilayotgan talabalar an'anaviy tizimda tahsil olayotganlarga nisbatan yuqoriroq o'zlashtirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan. Bu esa, modul tizimida talabaning shaxsiy javobgarligi va faolligi oshishini, o'qituvchi esa faqat yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida faoliyat yuritishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kredit-modul tizimi sharoitida ona tili darslarini tashkil etishda quyidagi yondashuvlar eng samarali hisoblanadi:

1. **Integrativ yondashuv** – fanlararo bog'liqlik asosida o'qitish;
2. **Interfaol yondashuv** – muammoli, rolli, loyiha asosidagi ta'lim metodlarini qo'llash;
3. **Raqamli yondashuv** – multimedia, onlayn testlar, elektron platformalardan foydalanish;
4. **Refleksiv yondashuv** – talabani o'z faoliyatini tahlil qilishga o'rgatish.

Natijalar shuni isbotladiki, mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarda ona tilini o'qitish metodikasini chuqur o'zlashtirish, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ijodkorlikni rag'batlantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ona tili darslarini tashkil etishda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish — ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ona tili darslarini tashkil etish bugungi ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu tizim talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va o'zini baholash qobiliyatini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Mazkur tizimda ta'lim jarayonini

samarali tashkil etish uchun pedagogik, tashkiliy va texnologik shart-sharoitlarni puxta yo'lga qo'yish zarur.

Eng avvalo, o'qituvchilarning modul asosida dars o'tish bo'yicha metodik tayyorgarligi oshirilishi, zamonaviy interfaol va raqamli texnologiyalar ta'lim jarayomiga keng joriy etilishi lozim. Talabalar faol ishtirok etadigan, muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ona tili darslarini tashkil etishda refleksiv yondashuvni qo'llash — talabani o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga o'rgatadi.

Tahsiillar shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ona tili darslari:

- ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlaydi;
- talabalarni mustaqil ta'lim olishga undaydi;
- o'qituvchining yo'naltiruvchi rolini kuchaytiradi;
- dars sifatini oshiradi va kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, kredit-modul tizimining samarali joriy etilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamon talablari darajasida tayyorlash, ularning ona tili darslarini yuqori pedagogik saviyada tashkil etish ko'nikmalarini shakillantirishga xizmat qiladi. Natijada, ta'lim tizimida raqobatbardosh, malakali va ijodkor o'qituvchilarni tayyorlashga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va ta'lim tizimida boshqaruvning yangi mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori. — Toshkent, 2018-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2020.
3. Abduqodirov, A. A. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Musurmonova, N. M. *Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Yuldasheva, T. S. *Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi*. — Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. To'raqulova, M. A. *Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish asoslari*. — Toshkent: TDPU, 2022.

